



## LINGUOCULTURAL CLASSIFICATION OF WORDS EXPRESSING WOMEN'S CHARACTER

**Rakhimova Umida Solieva**

Docent, PhD, Urgench Ranch Technological University,

**Masharipova Nargiza Irkinovna**

Postgraduate student, Urgench Ranch Technological University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14271762>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> November 2024

Accepted: 29<sup>th</sup> November 2024

Online: 30<sup>th</sup> November 2024

### KEYWORDS

*Parema, paremiology, folklore, gender, gender stereotypes, proverbs, social status, mentality, family life.*

### ABSTRACT

*Paremas representing the character of a woman are an ancient and rich layer of folklore, through which many concepts about the valuable place of a woman in society, personal and social characteristics were formed. By studying these stories, one can gain a deeper understanding of our nation's attitude towards women, its ancient ideas and stereotypes, as well as its own culture. Conducting research on this topic is also important for linguistics, folklore studies and cultural studies. In this article, the linguistic and cultural classification of female characters in the Uzbek and English languages is widely covered.*

## ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ПАРЕМ, РЕПРЕЗЕНТИРУЮЩИХ ЖЕНСКИЙ ХАРАКТЕР

**Рахимова Умида Солиевна**

Доцент и.о, PhD, Ургенч Ранч Технологический университет

**Машарипова Наргиза Иркиновна**

Магистрант, Ургенч Ранч Технологический университет

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14271762>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> November 2024

Accepted: 29<sup>th</sup> November 2024

Online: 30<sup>th</sup> November 2024

### KEYWORDS

*Парема, паремиология, фольклор, гендерные термины, гендерные стереотипы, пословицы, социальное положение, менталитет, семейная жизнь.*

### ABSTRACT

*Паремы, выражающий женский характер – это древний и богатый пласт фольклора, благодаря которому формировались многие представления о ценном месте женщины в обществе, личностных и социальных характеристиках. Изучая эти истории, можно глубже понять отношение нашей нации к женщинам, ее древние представления и стереотипы, а также собственную культуру. Проведение исследований по этой теме важно также для лингвистики, фольклористики и культурологии. В данной статье широко освещена лингвокультурная классификация женских персонажей в узбекском и английском языках.*



## AYOL XARAKTERINI IFODALOVNCHI PAREMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TASNIFI

Raximova Umida Solieva

Dotsent v.b, PhD, Urganch Ranch texnologiya universiteti

Masharipova Nargiza Irkinovna

Magistrant, Urganch Ranch texnologiya universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14271762>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> November 2024

Accepted: 29<sup>th</sup> November 2024

Online: 30<sup>th</sup> November 2024

### KEYWORDS

*Parema, paremiologiya, folklore, gender, gender stereotiplari, maqol va matallar, ijtimoiy mavqe, mentalitet, oilaviy hayot.*

### ABSTRACT

*Ayol xarakterini ifodalovchi paremalar xalq og'zaki ijodining qadimiy va boy qatlami bo'lib, ular orqali jamiyatda ayolning qadriyati, o'rni, shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlari haqida ko'plab tushunchalar shakllangan. Bu paremalarni o'rganish orqali xalqimizning ayollarga nisbatan munosabatini, qadimiy tasavvurlari va stereotiplarini, shuningdek, o'ziga xos madaniyatini ham chuqurroq anglash mumkin. Bu mavzuda tadqiqot olib borish tilshunoslik, folklorshunoslik va madaniyatshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tililaridagi ayol xarakteriga xos bo'lgan paremalarning lingvistik va madaniy jihatdan tasniflanishi keng yoritilgan.*

**Kirish:** Ayol xarakterini yorituvchi paremalar – bu xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi bo'lib, qadimdan jamiyatda ayollar haqidagi tasavvurlar, qarashlar va qadriyatlarni aks ettirgan. Har bir jamiyatda o'ziga xos tarzda ayol xarakteriga oid maqol, matal va paremalar mavjud bo'lib, ular ayolning oila, jamiyat va insoniy munosabatlardagi o'rnini ifodalaydi. Bu paremalar orqali jamiyatda ayolga bo'lgan munosabatni, unga yuklatilgan vazifalar va mas'uliyatlarni, shuningdek, uning shaxsiy sifatleri qanday baholangani ko'rinadi. Ko'pgina jamiyatlarda ayolning oiladagi o'rni muhim hisoblanadi. Shu sababli, ayollar haqidagi paremalarda ko'pincha onalik, mehribonlik, fidoyilik kabi xususiyatlar aks ettiriladi. “Ayol – uyning bekasi” kabi iboralar ayolning oilaviy barqarorlik va farovonlikni ta'minlashdagi o'rnini ifodalaydi. Bunday paremalar, odatda, jamiyatning qadimiy ijtimoiy rollari va qadriyatlariga asoslangan bo'ladi. Ayollar haqida yaratilgan paremalarda ko'pincha ularning sabr-toqati, donolik va kuchlilik kabi xususiyatlari ham yoritiladi. Bu xil iboralar ayolning ijtimoiy hayotda turli sinovlardan o'tishi, qiyinchiliklarga bardosh berishi mumkinligini ko'rsatadi. “Ayolning sabri daryo” kabi iboralar ayolning tabiiy sabr-toqatiga va ichki kuchiga urg'u beradi. Ayol xarakteriga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik va hissiylik ko'p maqollarda ifodalangan. Bu kabi paremalar ayollarni nozik va muloyimlik bilan ifodalash bilan birga, ba'zida ularning hissiy o'zgaruvchanligini ham yoritadi. “Ayol – bahor guli” degan ibora ayolning nazokatini ifodalaydi, ammo ularning kayfiyat o'zgaruvchanligiga ham ishora qiladi. Ayrim maqollar va paremalar ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini ulug'laydi va ularning jamiyat barqarorligi uchun qanchalik muhim ekanligini ta'kidlaydi. Bu xil maqollarda ayollar jamiyatning kelajagini shakllantiruvchi, yangi avlodni tarbiyalovchi shaxslar sifatida



ko'rsatiladi. Misol uchun, "Ayol – kelajakning bunyodkori" kabi iboralar bu qadriyatlarni aks ettiradi [1].

**Tahlil:** Ayollar haqidagi maqol va matallar, shuningdek, xalq og'zaki ijodida ayol obrazini o'rganish bilan shug'ullangan olimlar tilshunoslik, folklorshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida tadqiqot olib borganlar. Ayollar haqidagi paremlar (maqollar, hikmatlar) qadimdan insoniyat madaniyati, jamiyati va qadriyatlarining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Ushbu paremlar odatda jamiyatning ayollarga nisbatan munosabatlarini, qadriyatlarini va ularning rolini ifodalaydi. Ularning kelib chiqish tarixi murakkab bo'lib, ko'pincha turli madaniyatlar, diniy e'tiqodlar va tarixiy voqealar bilan bog'liq. Ilk insoniyat tarixida matriarxal tuzum hukm surgan joylarda ayollarning hayotdagi muhim roli haqida ko'plab paremlar shakllangan. Ular odatda ayollarning nasl qoldirishi va tabiat bilan aloqasini ulug'lagan. Masalan, "Ayol – hayot manbai" kabi g'oyalar ilgari surilgan. Keyinchalik patriarxat kuchayishi bilan ayollarning ijtimoiy mavqei pasaygan va ular haqida ijobiy va salbiy xarakterdagi paremlar paydo bo'lgan. Bunda ayolning sabrli, itoatkor yoki go'zal bo'lishi kabi sifatleri oldinga surilgan. Ko'p madaniyatlarda diniy e'tiqodlar paremlarni shakllantirgan. Muqaddas Qur'on va Hadis kitoblarida ayollar haqidagi ko'pgina hikmatli gaplar, masallar va voqealar uchraydi. Ular ayollarni onalik, sadoqat, ibodatga yaqinlik kabi fazilatlar bilan bog'laydi. "Jannat – onalar oyog'i ostida" degan hikmatli so'z hadisda keltirilgan. Bu so'zning asosi, hadisda, onaning ahamiyati va uning dunyodagi o'rni haqida ta'kidlanadi. Ayollarning ma'naviy kuchi va oila boshqaruvidagi roli haqida ko'plab hikmatli gaplar mavjud. O'rta asrlarda ayollar haqidagi paremlar odatda ularning oiladagi vazifalari va jamiyatdagi o'rnini belgilashga xizmat qilgan. Ayolning itoatkorligi va sadoqati haqida hikmatli so'zlar ko'p tarqalgan. Masalan, "Yaxshi xotin – uy bekasining tojidir" kabi fikrlar ayollarning oiladagi ahamiyatini ko'rsatgan [2].

Renessans davrida ayollar obrazlari san'at va adabiyotda qayta tiklandi. Bu davrda paydo bo'lgan paremlar ko'proq ayollarning go'zalligi, aqliy qobiliyatlari va mustaqilligi haqida bo'lgan. Masalan: "Donolik va go'zallik kamdan-kam hollarda birga yashaydi" kabi maqollarda buni kuzatishimiz mumkin. Zamonaviy davrda ayollar haqidagi paremlar ko'proq gender tengligi va ayollarning erkinligini ulug'lashga qaratilgan: "Ayolning ovozi dunyoni o'zgartiradi" yoki "Ayollar nafaqat jamiyatning yuragi, balki uning ruhidir" kabi zamonaviy iboralar shakllandi. Davrlar oshib paremlarning roli va evolyutsiyasi ham o'zgarib boradi. Ayollar haqidagi paremlar jamiyatning rivojlanishi va o'zgarishlariga muvofiq yangilanib, o'zining yangi mazmunlarini oladi. Ularning kelib chiqishi insoniyatning qadimiy madaniyatlaridan tortib hozirgi kungacha davom etib kelayotgan ayol haqidagi turli stereotiplar va ideallar bilan bog'liq. Paremlar ayollarning tarix davomida o'z o'rnini anglash, ularga hurmat ko'rsatish yoki ba'zan cheklovlar qo'yish vositasi sifatida paydo bo'lgan. Bugungi kunda esa ular gender tenglikni ulug'lash va ayollarning jamiyatdagi rolini qayta baholashga xizmat qilmoqda [5].

**Metodlar:** Ayol haqidagi paremlarni lingvokultural tasnifi ularning turli xalqlar madaniyati, urf-odatlarini va dunyoqarashlarini aks ettiruvchi tilda ifodalanishiga asoslanadi. Lingvokultural yondashuvda paremlar nafaqat til birliklari sifatida, balki xalqning madaniy xotirasining ajralmas qismi sifatida o'rganiladi. Ayol haqidagi paremlarni lingvokultural jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin: Jinsiy rol va ijtimoiy maqomga oid paremlar



ayolning jamiyatdagi o'rne va vazifalarini tasvirlaydi. Ular ko'pincha patriarxal tuzum, an'analar va yaqinlik rollari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan: o'zbek tili shunday maqol bor: *"Yaxshi ayol uyni obod qiladi, yomon ayol esa uyini xarob qiladi."* Ushbu naql ayolning odobi uy, oila, turmush bilan bog'liqligini, uning oiladagi roli muhimligini ifodalab turibdi. Ingliz tilida esa: *"A woman's place is in the home"* an'anaviy er-xotin munosabatiga ishora bo'lib, ayolning joyi uning uyidadir degan mazmunni anglatadi [6].

**Natijalar:** Lingvokultural farqlar: o'zbek madaniyatida ayol oilaviy barqarorlikni ta'minlovchi sifatida ko'riladi, ingliz madaniyatida esa bu qarashlar zamonaviy gender tenglik tushunchalari bilan asta-sekin o'zgarib bormoqda. Go'zallik va ayol jozibasini madh etuvchi paremlar ayol go'zalligi va jozibasini qadrlashga qaratilgan bo'lib, ular har bir madaniyatda estetik qadriyatlarni aks ettiradi. Masalan: o'zbek tilida: *"Chiroyli ayolga qarashdan ko'z to'ymaydi."* Ingliz tilida: *"Beauty lies in the eyes of the beholder"* go'zallik subyektiv ekanligi ifodalanadi [7,8]. Sharq madaniyatida ayolning tashqi ko'rinishi bilan birga uning odobi va xulqi ham muhim bo'lsa, g'arbda go'zallik subyektiv va individual qabul qilinadi. Donolik va ayol aqliga oid maqollar ayolning aqliy qobiliyatlari, donoligi va hayotiy tajribasini ifodalaydi. O'zbek tiidagi *"Onaning o'giti o'q o'tmas zirh"* hikmatli so'z, an'anaviy sharq adabiyotida va ayniqsa, musulmon xalqlari orasida juda keng tarqalgan maqol bo'lib, onaning farzandi uchun qanday mustahkam va muqaddas ekanligini ifodalaydi. Bu so'zning ma'nosi onaning o'z farzandiga bo'lgan g'amxo'rliigi va uning himoyasi naqadar kuchli va mustahkam ekanligida yotadi. *"Onaning o'giti"* ya'ni, onaning tarbiyasi, o'giti farzandni yomonliklardan saqlaydigan, uni himoya qiladigan va unga mustahkam asoslarga ega bo'lishini ta'minlaydigan kuchli bir narsa sifatida tasvirlanadi. *"O'q o'tmas zirh"* esa, o'qning o'tmas bo'lmasligi, to'g'ri va mustahkam himoya qiluvchi narsa sifatida ko'rsatilgan. Bu, onaning tarbiyasi va g'amxo'rliigi farzandni dunyodagi barcha xavf-xatarlardan, yomonliklardan himoya qiladigan eng kuchli *"zirh"* ekanligini bildiradi [12]. Bu maqolning asosiy maqsadi – onaning tarbiyasi va sevgi bilan bo'lgan aloqasining farzand uchun qanday mustahkam va himoyali ekanligini ko'rsatishdir.

**Muhokamalar:** Ingliz tilidagi *"A mother's advice is always golden"* maqoli onaning o'giti oltinga teng, beqiyos degan ma'noni anglatadi Sharq madaniyatida onaning o'gitlari muqaddas sanalsa, g'arbda bunday paremlar ko'proq individualistik qadriyatlarni yoritadi. Ayol va oilaviy barqarorlik haqida paremlarda ayol oilaning asosi, tarbiya va muvozanatni ta'minlovchi sifatida tasvirlanadi [9]. O'zbek tilidagi *"Ayol bir qo'li bilan beshikni, bir qo'li bilan dunyoni tebratar"* maqoli ayolning jamiyatdagi ko'p qirrali roli va uning farzand tarbiyasiga qo'shgan hissasining muhimligini, shuningdek, uning barcha faoliyatlaridagi o'rne va mas'uliyatini ulug'laydi. Ingliz tilidagi *"The hand that rocks the cradle rules the world"* maqolida kelajak avlodni tarbiyalashda onalarning ahamiyati ko'rsatilgan [10]. Ular uy rovida bo'lib ko'rinishi mumkin bo'lsa-da, farzandlarining rivojlanishiga va kengroq dunyoga ta'siri juda katta. Onalar o'zlarining yo'l-yo'riqlari, g'amxo'rliigi va ta'lim-tarbiyasi orqali kelajak yetakchilari, mutafakkirlari va ijodkorlarining qadriyatlari va harakatlariga ta'sir ko'rsatadilar. Bu ibora ota-ona tarbiyasi, ayniqsa onalar tomonidan jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [12].

Ikkala madaniyatda ham ayolning tarbiyachi sifatidagi roli ta'kidlangan, ammo G'arbda bu rol gender tenglik nuqtayi nazaridan ko'riladi. Salbiy stereotiplarni aks ettiruvchi ba'zi





paremalar ayollar haqida salbiy qarashlarni aks ettiradi. Bunday paremalar patriarxal jamiyatlarda keng tarqalgan. O'zbek tilidagi *"Ayol ketsa, bir uy o'ynar"*, ingliz tilida *"Hell hath no fury like a woman scorned"* (Qizg'in his-tuyg'ularga urg'u.) iboralari bunga misol bo'la oladi. Salbiy stereotiplar madaniyatdan madaniyatga farq qilsa-da, bu paremalarni zamonaviy kontekstda tanqid qilish va qayta baholash kuzatiladi [11].

## Xulosa

Ayol xarakterini ifodalovchi paremalar odatda uzoq yillar davomida shakllangan ijtimoiy, madaniy, va tarixiy tajribalarni ifodalaydi. Ular jamiyatda mavjud bo'lgan gender rollari va stereotiplarni, qadriyatlarni aks ettiradi. Bu paremalar ayolning hissiyotlari, oiladagi roli va jamiyatdagi mavqei haqida ko'p narsalarni ochib beradi, biroq ularning ayrimlari zamonaviy qarashlarga mos kelmasligi mumkin, chunki ular tarixiy davrning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Ayol xarakteri haqida yaratilgan paremalar har bir xalqning madaniy qadriyatlari, urf-odatlari va ijtimoiy tuzumi bilan bog'liq. Sharq xalqlarida ayol odatda mehribonlik, sadoqat va oilaviy barqarorlik ramzi sifatida ta'riflansa, G'arb madaniyatlarida uning mustaqilligi, ichki kuchi va individual qadr-qimmati ko'proq ta'kidlanadi. Ko'plab madaniyatlardagi paremalar ayolni tabiat bilan qiyoslash, go'zallikni ulug'lash va uning tarbiyachilik rolini ta'kidlash orqali o'zaro o'xshashlikka ega. Shu bilan birga, sharq madaniyatlarida ayolning oiladagi vazifasi va jamoatdagi mavqeiga alohida urg'u beriladi. G'arbda esa ayolning shaxsiy erkinligi va gender tengligi ko'proq qadrlanadi. Ayol haqidagi paremalar tarixiy jarayonlar va ijtimoiy o'zgarishlar ta'sirida o'zgarib bormoqda. Patriarxal madaniyatdan kelib chiqqan ba'zi eski paremalarni zamonaviy davrda qayta baholash zarur. Bugungi kunda ayollarni faqat oilaviy rol bilan cheklash emas, balki ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy faoliyatini ham yorituvchi yangi paremalar shakllanmoqda. Ayol xarakterini ifodalovchi paremalar xalq pedagogikasida muhim rol o'ynaydi. Ular yosh avlodni tarbiyalashda ayollarning mehribonlik, sadoqat, donolik va kuchli xarakterga ega ekanligini o'rnak sifatida ko'rsatadi.

## References:

1. Ўзбек халқ мақоллари: [2 томлик]. Масъул муҳаррирлар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов. Том 1.– Тошкент, "Фан", 1987. – 368 б.
2. Т.МIRZAYEV, А.МUSOQULOV, В.СARIMSOQOV. O'ZBEK XALQ MAQOLLARI, «Sharq», 2005.-257 b. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
3. Хабибуллина Л.Ф. Женский национальный тип в английской литературе XIX века // Вестник Челябинского государственного педагогического университета, 11-1, 2009. — С. 292–299.
4. Рахимова И.Р. Рахимова У.С. ЎЗБЕК -ИНГЛИЗ АДАБИЁТИДА АЁЛ СИЙМОСИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ. "Экономика и социум" №10 (125) 2024.- 14 б. [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru)
5. Jo'rayeva B. O'zbek xalq paremalarining sinonimik lug'ati. – Toshkent, 2023. – B.6
6. Mieder, W. (2004). *"Proverbs: A Handbook"*. London: Greenwood Publishing Group.
7. Lakoff, G. (1987). *"Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind"*. Chicago: University of Chicago Press.
8. Mieder, W., & Dundes, A. (1981). *"The Wisdom of Many: Essays on Proverbs"*. New York: Garland Publishing. (Maqollarni lingvistik va madaniy kontekstda o'rganish.)



9. Maxmaraimova Sh. T. Hozirgi o'zbek tili Leksikologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, Firdavs-Shoh nashriyoti, 2021. – B.220. 86
10. A Dictionary of American Proverbs Wolfgang Mieder first published, Oxford University Press, 1992. – P. 710
11. The Oxford Concise Dictionary of Proverbs. John Simpson and Jennifer Speake. Third Edition, Oxford University Press, 1998 – P. 364.
12. Salievna, R. U. (2022). The role of metaphors in the description of motherhood in anne enright's short stories. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(4), 208-213.